



BUXORO VILOYATINING ARDOQLI FARZANDI, DIRIJYOR, KOMPOZITOR VA
PEDAGOG RAJABOV HIKMAT JUMAEVICH IJODIY FAOLIYATI, O‘ZBEK VA
QORAQALPOQ MADANIYATI RIVOJI YO‘LIDAGI ISHLARI

Gaybullaeva Xurliman Nurabillaevna

O‘zbekiston davlat konservatoriyasi Nukus filiali 3-kurs talabasi

Ilmiy rahbar: Abatbaeva Rano

hurliman591@gmail.com

Annotatsiya: Bu maqolada Buxoro viloyatining ardoqli farzandi, professor, dirijyor, kompozitor, pedagog Rajabov Hikmat Jumaevich bolalik davri, ota-onasi va qarindoshlari, musiqaga qiziqishi, maktab va katta o‘qishlarda o‘qishi, ustozlari haqida so‘z etiladi. Kompozitorlik, dirijyorlik sohalaridagi ish faoliyati, shogirdlari va hozirda O‘zbekiston davlat konservatoriyasi Nukus filiali “Cholg‘u ijrochiligi kafedra” si xalq cholg‘ulari orkestridagi ish faoliyati va talaba yoshlarga dars berip, o‘zbek va qoraqalpoq musiqa madaniyati rivojida samarali mehnatlari haqida keng so‘z etiladi.

Kalit so‘zlari: Orkestr, sozanda, musiqa, qo‘shiq, dirijyor, koncert, madaniyat, konservatoriya, filarmoniya, repertuar, “Makariya suliv”, balet, cholg‘u ijrochiligi, Nukus, Buxoro, pedagog, “Oh, oppoq kapalak”, “Ibn Sino amri bilan”, “Oltin fond”.

Аннотация: В данной статье рассказывается о заслуженного ребенка Бухарской области, профессора, дирижера, композитора, педагога Раджабова Хикмата Джумаевича, о его детстве, о его родителях и родственниках, его интерес к музыке, про учебные годы в школе и ВУЗах, о его учителях. Широко будут говорить работы в области композиции и дирижирования, о его учениках и в настоящее время деятельность в оркестре народных инструментов Нукусского филиала государственной консерватории Узбекистана «Кафедры инструментального исполнительства» и его эффективные работы в развитии узбекской и каракалпакской музыкальной культуры, про обучение молодых студентов.

Ключевые слова: Оркестр, музыкант, музыка, песня, дирижер, концерт, культура, консерватория, филармония, репертуар, «Макарья красавица», балет, инструментальное исполнительство, Нукус, Бухара, педагог, «О, белая бабочка», «По приказу Ибн Сины», «Золотой фонд».

Annotation: This article tells about the honored child of the Bukhara region, professor, conductor, composer, teacher Radjabov Hikmat Dzhumaevich, about his childhood, about his parents and relatives, his interest in music, about his academic years at school and universities, about his teachers. Work in the field of composition and conducting, about his students and currently his activities in the folk instruments orchestra of the Nukus branch of the State Conservatory of Uzbekistan “Department of Instrumental Performance” and his effective work in the development of Uzbek and Karakalpak musical culture, about teaching young students will be widely discussed.



Keywords: *Orchestra, musician, music, song, conductor, concert, culture, conservatory, philharmonic, repertoire, "Makarya Beauty", ballet, instrumental performance, Nukus, Bukhara, teacher, "Oh, white butterfly", "By order of Ibn Sina", "Gold Fund".*

Xalqimiz madaniy merosining ajralmas qismi bo'lgan milliy maqom san'atini keng targ'ib etish, uning o'ziga xos ijro maktablari va an'alarini yangi bosqichda ravnaq toptirish hamda xalqaro nufuzini oshirish yo'lida mehnat faoliyatini olib borayotgan xodimlarni qo'llab-quvvatlash maqsadida:

1. 2023-yil 1-oktabrdan boshlab, O'zbek milliy maqom san'ati markazi (keyingi o'rinlarda — Markaz) va uning hududiy bo'limlari boshqaruv, ilmiy va ijodiy xodimlarining yangilangan oylik ish haqi miqdorlari tasdiqlansin.

2. Iqtisodiyot va moliya vazirligi uch kun muddatda Markazning o'zbek milliy maqom san'atini rivojlantirish bo'yicha alohida shaxsiy g'azna hisobvarag'ini (keyingi o'rinlarda — Hisobvaraqlar) ochsin.

Quyidagilar Hisobvaraqlar mablag'larini shakllantirish manbalari etib belgilansin:

Markazning konsert-tomosha tadbirlarini tashkil etish va madaniy tadbirlarni o'tkazishdan olinadigan daromadlari; xalqaro moliya tashkilotlari, xorijiy davlatlar va boshqa donorlarning kreditlari, grantlari va texnik ko'maklashish mablag'lari; Hisobvaraqlarning vaqtincha bo'sh turgan mablag'larini tijorat banklarining depozitlariga joylashtirishdan olinadigan daromadlar;

3. Belgilansinki, Hisobvaraqlar mablag'lari quyidagi yo'nalishlarga sarflanadi: mahalliy va xorijiy gastrol safarlarini tashkil etish; ommaviy axborot vositalari va ijtimoiy tarmoqlarda maqom va bastakorlar asarlarini targ'ib etish; liboslar, musiqa cholg'ulari va ovoz kuchaytirgich uskunalarni xarid qilish; markaz va uning hududiy bo'limlari moddiy-texnika bazasini rivojlantirish; markaz xodimlarini moddiy rag'batlantirish; maqom san'atini rivojlantirishga qaratilgan boshqa tadbirlarni moliyalashtirish.

4. O'zbekiston Respublikasi Bosh vaziri (A.N. Aripov) bir hafta muddatda Hisobvaraqlar moliyaviy qo'llab-quvvatlash maqsadida 100 milliard so'm mablag'ning moliyaviy manbalarini aniqlab, tijorat banklarining depozitlariga joylashtirilishini ta'minlasin.

5. Markaz xodimlari faoliyatining quyidagi yo'nalishlarida erishilgan natijalari asosida Hisobvaraqlar mablag'lari hisobidan mehnatga haq to'lash jamg'armasining bir baravari miqdorigacha ustamalar belgilash tartibi joriy etilsin:

Respublika hududlarida va xorijiy davlatlarda gastrol konsert-tomosha tadbirlarida qatnashish; mumtoz musiqa yo'nalishida maqom namunalariga xos asarlarni yaratish va ularni notaga olish; maqom va bastakorlar tomonidan bastalangan asarlarni takomillashtirish; ommaviy axborot vositalari hamda ijtimoiy tarmoqlar orqali sof va mukammal ijrodagi maqomlarni targ'ib etish; mumtoz musiqa merosiga oid ilmiy maqolalar chop etish, izlanishlar olib borish, kitoblar va to'plamlar yaratish; maqom va bastakorlar tomonidan bastalangan asarlarning zamonaviy ohangdagi karaokelarini yaratish; "ustoz-shogird" an'analari davom ettirish; maqom san'atini rivojlantirishga qaratilgan boshqa yo'nalishlar.



Madaniyat vazirligi bir oy muddatda Markaz boshqaruv, ilmiy hamda ijodiy xodimlari faoliyati samaradorligining asosiy ko'rsatkichlari ro'yxati va ularning ijrosini baholash tartibini tasdiqlasin.

II. Mazkur qarorning ijrosini samarali tashkil qilishga mas'ul va shaxsiy javobgar etib madaniyat vaziri O.A. Nazarbekov belgilansin¹.

Qaror ijrosini muhokama qilib borish, ijro uchun mas'ul idoralar faoliyatini muvofiqlashtirish va nazorat qilish O'zbekiston Respublikasi Bosh vaziri A.N. Aripov zimmasiga yuklansin. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. MIRZIYOYEV Toshkent sh., 2023-yil 30-avgust, PQ-289-sonli qarori madaniyat sohasi, milliy mumtozimiz, tariximizga yoshlarni e'tibori, qiziqishi yanayam kuchayib kelajak avlodga yetqazib berishiga asos bo'ladi.

O'z navbatida ustozimiz Hikmat Rajabov ham maqom yo'nalishida biz shogirdlariga ilm berishda davom etib kelmoqda.

O'z shogirdlarimga ustozlarim kabi munosabat qilishga urinaman, bor mehrimni ayamay ilm urgataman. So'z mulkinging sultoni hazrat Navoiyning:

**Hunarni asrabon netgumdur oxir,
Olib tufroqqami ketgumdur oxir².**

degan so'zlarida ijod ahli uchun ulkan ibrat borligiga yana bir bor iqror bo'lasan kishi. Hikmat Jumaevich ustozim yuqorida ko'rsatilgan qatorlarga amal qilib nafaqat shogirtlari balkim yosh istedodli o'qituvchilarga ham bilim berishda davom etib kelmoqdalar.

H.Rajabov 1950 yil 1- fevralda Buxoro viloyati Buxoro tuman Otbozor QFY "Shiribadan" qishlog'ida ishchi dehqon oilasida o'n yildan buyon intizorlik bilan kutilgan farzand dunyoga keladi. H.Rajabovning onasi Zevarxon aya Axmedova (1912-1975) yashab o'tkan. Otasi Juma Rajabov (1900-1985) yashab o'tkan. Ota o'g'liga rubob olib berish niyatida bo'ladi. Lekin o'g'lining san'atga mehri balandligi tufayli sabri chidamay, qo'lbola rubob yasab, ota-onasi, ukalariga qo'shiq aytib beradi. H.Rajabov ilk musiqiy bilimlarini shahar madaniyat uyi qoshida faoliyat ko'rsatgan kursda o'qituvchi Shavkat Subhonovdan oldi. 1966- yilda o'rta maktabni tugatgach, Buxoro davlat musiqa bilim yurtiga o'qishga kiradi. Bilim yurtida H.Rajabov O'zbekiston xalq maorifi a'lochisi, taniqli san'atkor ustozoda Hojiev Mo'min Muxsinovich qo'lida qashqar rubobi va dirijyorligi mutaxassisligi bo'yicha o'qidi. O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan o'qituvchi, maqomshunos Ma'rufjon Toshpo'latovdan esa Shashmaqom sirlarini o'zlashtiradi. Keyinchalik H.Rajabovning asarlarida Buxoro Shashmaqomining o'ziga xos usul va ohanglari o'z aksini topa boshladi. Bilim yurtida tajribali ustozlar qatorida musiqa nazariyasidan O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artist Ahmadjon Ixtiyorov saboq berdilar³.

1688- yilda u bilim yurtida o'qish bilan birga ilk bor ish faoliyatini Sadriddin Ayniy nomli Buxoro viloyat musiqali drama va komediya teatrida qashqar rubob ijrochisi sifatida ish faoliyatini boshlaydi. 1969-1971- yillarida u vatan oldidagi burchini ado etib, harbiy

¹ Sh. Mirziyoyev O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 30-avgustdagi PQ-289-sonli qarori.

² Ражабов.Х. "ОПЕКСТР СИНФИ", "Музыка", Ташкент 2011, Б.9.

³ BARNAYEVA.N. "BUXOROI SHARIFNING ARDOQLI FARZANDI". "Musiq". Toshkent. 2020. B.17.



xizmat vazifasini o‘taydi. 1971- yilda harbiy xizmatdan qaytib, musiqa bilim yurtida o‘qishini davom ettiradi. Ustozlar nazariga tushgan H.Rajabov bilim yurtini imtiyozli diplom bilan tamomlab, 1973- yilda Toshkent davlat konservatoriyasining xalq cholg‘u asboblari fakultetiga o‘qishga kiradi. Konservatoriyada qashqar rubobi mutaxassisligi bo‘yicha yetakchi mutaxassislardan biri professor Vasilyev Feotist Nikiforovich sinfida, dirijyorlik mutaxassisligi bo‘yicha taniqli kompozitor, professor Nazarov Fattoh Vahobovich dan tahsil oladi. Konservatoriya talabasi H.Rajabov 1975- yil 10-20- avgustda O‘zbekistonlik talaba yoshlari nomidan Moskvada bo‘lib o‘tgan O‘zbekiston adabiyoti va san’ati kunlari anjumanida ishtirok etishga muvaffaq bo‘ladi.

1978- yilda konservatoriyani bitirish arafasida ustози F.Vasilyev nafaqaga chiqish fursati yetib, shogirdini o‘z o‘rnida qolishini tavsiya etadi. Otasining Buxoroda yolg‘izlanib qolganligi sababli H.Rajabov Buxoroga qaytishi kerak edi. Ustoziga Buxoroga qaytishi kerakligi haqida aytganida “nachora, biz hammani ham bu yerga ishga olavermaymiz, men seni o‘z o‘rnimga tayorlagan edim, afsus... lekin men ishonaman, bir kunmas bir kun kelib sen shu dargohda albatta ishlaysan” dep shogirdiga aytgan. Ustози vafotidan oldin farzandlariga vasiyat qilib: “Buxoroga telefon qilib, shogirdim Hikmatni topib meni rubobimni unga beringlar” deya vasiyat qilgan ekan. Hanuzgacha ustozidan esdalik o‘sha rubobni ardoqlab yuradi.

1978- yil konservatoriyani tamomlab Buxoroga qaytib Buxoro bilim yurtida o‘qituvchi va teatrda bosh dirijyorlikka tayinlashadi. Teatrda dirijyorlik faoliyatida “Layli va majnun”, “Fotima kampir lotoreyasi”, “Dilorom”, “Navoiy” spektakllarida o‘zining tashabbusini qilishga muvaffaq bo‘ladi. 1984-1987- yillar davomida viloyat Davlat Filarmoniyasida rahbarlik lavozimida faoliyat ko‘rsatadi. 1987-1997- yillari Buxoro davlat san’at bilim yurtida rahbar sifatida faoliyat yuritadi. 1989 yili Madaniyat ishlari vaziri qabuliga kirib, konservatoriyada maqom fakultetida o‘rta maxsus bilim yurtlari kadr tayorlashi lavozimiga taklif qilinadi. 1997- yil avgustida Buxoro viloyati hokimligi madaniyat ishlari bo‘yicha boshqarma boshlig‘i lavozimiga tayinlanadi. 1992- yili fevral oyida Alma-Ata shahrining “Qurmang‘azi” nomidagi Davlat konservatoriyasida Xalqaro miqiyosida o‘tkazilgan orkestrlar rahbarlari konferenciyasida ijodiy ma‘ruzasi bilan qatnashadi. 2001- yil avgust oyida Toshkentga ishga keladi. Faoliyatini O‘zbekiston davlat konservatoriyasi hamda Respublika musiqa kolledjida oliy toifali o‘qituvchi sifatida ish boshlaydi. Oradan ko‘p o‘tmay 2002- yil boshida O‘zbekiston teleradiokompaniyasi badiiy jamoalar direkciyasi qoshidan Doni Zokirov nomli xalq cholg‘ulari orkestrining badiiy rahbari va bosh dirijyori lavozimida ifh faoliyatini davom etadi. Mehnatlar samarasi inobatga olinib, 2007 yilda O‘zbekiston Kompozitorlar va Bastakorlar uyushmasiga a‘zo bo‘ladi. Ijodiy faoliyati davomida turli janrlarda 100 dan ziyod asar yozib, shulardan 27 tasi radioning “Oltin fond”iga yozildi⁴. Shulardan “Mustaqillik maydoni”, “ Oh, oppoq kapalak”, “Sog‘inchlarim bor”, “Hayrat”, “Qalb nidosi” va boshqa asarlari yozilgan⁵.

⁴ Ражабов.Х. “ОРКЕСТР СИНФИ”, “Музыка”, Тошкент 2011, Б.11.

⁵ BARNAYEVA.N. “BUXOROI SHARIFNING ARDOQLI FARZANDI”. “Musiq”. Toshkent. 2020. B.65.



H.Rajabovning oilasi san'atkorlar oilasi. Turmush o'rtog'i Rajabova Nodira Toshkent davlat konservatoriyasi "Musiqashunoslik" ixtisosligini tamomlab, musiqashunoslik kasbida faoliyat yuritib keladi. Respublika va xalqaro tanlovlar sovrindori, V.Uspenskiy nomidagi RIMALning oliy toifali o'qituvchisi. N.Rajabovani Respublikada solfedjio fanini yanada rivojlantirish yo'lida yosh avlodni tarbiyalash uchun qo'llanmalar yaratishdagi hissalar ju'da ko'p. Qizi Shahnoza oilali, oliy ma'lumotli. M.Ahrafliy nomidagi Buxoro va san'at bilim yurtini fortepiano mutaxassisligi bo'yicha hamda Buxoro Davlat Universitetining filologiya fakultetini bitirgan. O'g'li Xurshid oilali, oliy ma'lumotli. Buxoro oziq avqat va yengil sanoat institutini bitirgan. O'g'li Jamshid oilali, oliy ma'lumotli. O'zbekiston davlat konservatoriyasi qashqar rubobi o'qituvchisi, orkestr dirijyori va koncert ijrochisi bo'yicha o'qigan. Respublika tanlovlari sovrindori, V.Yspenskiy nomidagi RIMAL katta o'qituvchisi. U "Tasanno" mukofoti hamda Xalqaro tanlovlar hakamlar xayatining minnatdorchilik faxriy yorlig'iga sazovor bo'lgan⁶. 2023 yili O'zbekiston davlat konservatoriyasi magistraturasini tamomlagan.

2022-2023 o'quv yilida H.Rajabov O'zbekiston davlat konservatoriyasi Nukus filialida "Cholg'u ijrochiligi" kafedrasida qashqar rubobi va dirijyorlik fanlaridan o'qituvchi va xalq cholg'ulari badiiy rahbari va bosh dirijyori lavozimlarida ish faoliyatini davom etib kelmoqda. Bir yil mobaynida o'zining qashqar va afg'on ruboblari sinf koncert dasturi va orkestr bilan Qoraqalog'iston televideniyasida jonli efir orqali xalqimizga ko'plab koncert dasturlarini taqdim etishga muvofaq bo'ldi. Qoraqalpoq kompozitorlari N.Muhammeddinov, M.Jiemuratov, A.Sultanovlarning asarlarini xalq cholg'ulari orkestriga moslashtirib koncert dasturlari o'tkazildi. M.Jiemuratovning "Makarya suluv" baletidan "Ilon o'ynatuvchi qoshiq" asarini orkestrga moslab yangilik bo'ldi. Yanada qoraqalpoq olamoynoq dutorini orkestrga qo'shish dutorchilar va xalq uchun katta yangilik bo'ldi. 2022 yil 16-17 Nobabr kunlari O'zbekiston davlat konservatoriyasi katta zalida va Yu.Rajabiy nomidagi maqom institutida xalq cholg'ulari orkestri bilan koncert dasturimiz bilan qatnashib keldik. Orkestrimiz repertuarida o'zbek, qoraqalpoq, turkman, qozoq, qirg'iz va evropa kompozitorlari asarlari o'rin olgan.

Xulosa qilib aytganda, H.Rajabov mehribon ota va bobo, mehnatsevar, kamtarin, o'zining mutaxassisliklari bo'yicha yetuk ustoz hisoblanadi. Mehnat faoliyati, ijodiy faoliyatidan o'rnak olsang arziydi. Ustozimizning yosh avlod uchun yozgan o'quv qo'llanmalari va kitoblarida ko'pgina foydali bilimlar o'lsak bo'ladi. Kitoblari va maqolalariga nazar qaratsak ustozga muhabbat, sadoqat, tarbiyaviy bilimlar va risolalar ko'p kiritilgan. Ustozimizga uzoq umir va sog'lik salomatlik tilab, yanada ijodiy bilimlar va yangiliklar kutib qolamiz.

⁶ Ражабов.Х. "ОРКЕСТР СИНФИ", "Музыка", Тошкент 2011, Б.12.



FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Sh. Mirziyoyev O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 30-avgust, PQ-289-sonli qarori.
2. Ражабов.Х. “ОРКЕСТР СИНФИ”, “Музыка”, Тошкент 2011.
3. BARNAYEVA.N. “BUXOROI SHARIFNING ARDOQLI FARZANDI”. “Musiq”. Toshkent. 2020.
4. H.Rajabovdan yozib olingan ma'lumotlar
5. Gaybullaeva X. “MUSIQA SAN'ATIDA IJROCHILIK MAHORATINI TAKOMILLASHTIRISHNING DOLZARB MASALALARI: AN'ANAVIYLIK VA ZAMONAVIYLIK” Respublika ilmiy amaliy anjuman materiallari to'plami 10- may 2022-yil, “Duwtar saz asbabinin turleri ham atqariv metodlari”. B.279
6. Gaybullaeva X. “O'ZBEK VA QORAQALPOQ DUTORLARINING RIVOJ TOPISHI VA ULARNING O'ZIGA HOS XUSUSIYATLARI”, “Modern Science and Research”
7. АБАТБАЕВА, Рано. "КОМПОЗИТОР НАЖИМАДДИН МУХАММЕДДИНОВ ИЖОДИДА ТАРИХИЙ СИЙМОЛАР." Journal of Culture and Art 1.1 (2023): 60-66.
8. 7. Абатбаева, Рано Алламбергеновна. "ҚОРАҚАЛПОҒИСТОН МУСИҚА МАДАНИЯТИНИ РИВОЖЛАНИШИДА МАШХУР БАСТАТОР Н. МУҲАММЕДДИНОВНИНГ ЎРНИ." Oriental Art and Culture 3.1 (2022): 648-653.
9. 8. Allambergenovna, Abatbaeva Rano. "THE MANIFESTATION OF EUROPEAN AND NATIONAL TRADITIONS IN THE OPERA "GULAYIM"." International Journal of Philosophical Studies and Social Sciences 2.2 (2022): 185-187.